

## UMUMTA'LIM MAKTAB ÒQUVCHILARIGA CMS DA MAQSADGA YO'NALTIRILGAN WEB SAYTLARINI YARATISH USULLARI BILAN TANISHTIRISH

*Erkinova Odinaxon*

*Andijon davlat pedagogika instituti “Matematika va informatika”  
yònalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada ta'lim resurslarini yaratishda boshqarish tizimlariga asoslangan tarkib muhokama qilinadi. CMS platformalarining xususiyatlari, imkoniyatlari va kamchiliklari aytib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** CMS, ta'limni axborotlashtirish, Joomla, ta'lim materiallari, tarkib, dasturiy ta'minot.

**Abstract:** The article discusses content based on management systems in the creation of educational resources. Features, capabilities and disadvantages of CMS platforms are mentioned.

**Keywords:** SMS, educational informatization, Joomla, educational materials, content, software.

**Аннотация:** В статье рассматривается контент на основе систем управления при создании образовательных ресурсов. Отмечены особенности, возможности и недостатки CMS-платформ.

**Ключевые слова:** SMS, образовательная информатизация, Joomla, учебные материалы, контент, программное обеспечение

### KIRISH

CMS – bu Content Management System dan olingan kengaytma, u so'zma-so'z tarjima qilinganda “Sayt kontentini Boshqarish tizimi” yoki “Saytni Boshqarish Tizimi” larni anglatadi. Ba'zida CMS ni saytning “Harakatlantiruvchisi” deb atashadi.

CMS – bu dinamik ma'lumotli web-sahifalarni ishlab chiqarish va ta'minlashga imkon beruvchi dasturiy ta'minotdir. Har xil CMS har xil murakkablikdagi saytlarni proyektlashga imkon beradi. Internet magazinlardan to informasion portallargacha, Hammasidan ham, CMS axborotli va kontentli saytlarni yaratish uchun mos keladi.

CMS (inglizcha “Content Management System” ) – sayt boshqaruv tizimi. Bu saytni tez yaratish , Bitrix Wordpress Joomla... (Saytni Boshqarish Tizimi) ishini soddalashtirish uchun xizmat qiladi. Ko'pchilik buni “motor” yoki “sayt yuragi” deb ataydi. CMS bu oddiy qilib aytilganda – sayt ochishni va saytni tahrirlash, ma'lumotlar kiritishni yengillashtiruvchi yaxlit bir sistema yani web dastur. Bu dastur php, html, mysql dasturlash tillarini toliq bilmasdan turib sayt ochish imkon beradi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR:

Saytni boshqarish tizimi buyurtmachiga saytni mustaqil ekspluatatsiya qilishda, ya'ni bizning mutaxassis bilan emas, balki o'zingizning kompaniya xizmatchingiz (menedjer, kotib, marketolog) bilan saytdagi ixtiyoriy ma'lumotni va uning strukturasi o'zgartirishingizga imkon beradi. Agar siz saytingiz marketingli uskuna va undagi har kungi ma'lumotida kompaniyangizning oxirgi marketingli aksiyalari aks etishini xoxlasangiz u holda CMS ni sizning saytingizga qo'llanilishi shart: va yana. Bu – saytingizni rivojlantirish yoki modernizatsiyalash ishlarida o'ylanmay qilingan harakatlar yoki shunchaki xatolardan asraydi.

Saytni boshqarish tizimi yordamida saytni rivojlanishi sezilarli soddalashadi va jonlanadi. Saytda yangi bo'lim yaratish, ixtiyoriy sahifada reklama bloklarini, ichki bannerlarni yoki tovarlarning maxsus takliflarini joylashtirishni buyurtmachi mustaqil va daqiqalar bilan o'lchanadigan vaqt mobaynida bajarishi mumkin. Bundan tashqari, Buyurtmachi mustaqil, bizning yordamimizsiz, CMS yordamida saytni yangi interfaol bo'limlarini yaratishi (masalan, forum) yoki u yoki bu sahifalarni parol bilan yopib va ularga faqat tanlangan foydalanuvchilargagina kirishga imkon berish mumkin.

Bizning saytni boshqarish tizimimiz (CMS, Bitrix) sizning saytingiz asosida yotuvchi bo'lgan, boshqa proyektarda ko'p marotaba o'rnatilgani (3500 martadan ko'proq), uchun u Saytingizni uni ekspluatatsiya qilish jarayonida dasturiy xatolardan asrashiga kafolat beradi.

CMS ning ikkita asosiy turi bor:

Internetda ishlovchi va joylashuvchi CMS.

Kompyuterga o'rnatilgan va sayt bilan avtomatik yoki fayllarni yangilash interfeysi orqali ulangan cms.

CMS ning sayt bilan integratsiyasidan keyin, kompaniyangizning xizmatchisi sayt tarkibi va strukturasi boshqarishlari, yangiliklarni chop qilishlari, matnlarni tahrir qilishlari va grafikani joylashtirishlari, katalogdagi mahsulotni o'zgartirishlari va mahsulotlarni qo'shishlari yangi sahifalarni, bo'limlarni yaratishlari va ko'pgina boshqa ishlarni bajarishlari mumkin. CMS asosida qurilgan dinamik saytlarning ustunligi dizaynning axborotli to'ldirishdan ajratilganida bu hujjat aylanmasini, biznes jarayonlarni shaxsiylashtirish mexanizmlarini avtomatlashtirishga imkon beradi. Bundan tashqari, CMS sayt tarkibini oson, sodda va tez boshqarishga imkon beradi. Bu CMS dan foydalanishning iqtisodiy foydasi sezilarli darajada bo'lishini ta'minlaydi.

CMS ning maqsad va vazifalari – mijoz tomonidan ma'lumot va grafikalarini boshqarish, to'ldirish va tahrir qilish. Soddaroq qilib aytganda, bu tizim – sizga bo'limlarni o'zgartirish va to'ldirish, sayt tarkibini tahrir qilish, sayt grafika va dizaynini o'zgartirishga imkon beradi. CMS siz bunday saytni boshqarish masalalari qimmat turuvchi dasturchilar aralashishmasa hal qilinmaydi.

CMS sayt kontentni boshqarish tizimi saytlarni yaratish va ta'minlash narxini pasaytiradi, shuningdek materiallarni yangilash tezligini oshiradi, ya'ni sayt xo'jayinida material paydo bo'lganidan to saytda chop etilganigacha ketgan vaqt CMS ni sharofati bilan minimal bo'ladi. Buning ustiga CMS da ma'lumotlarni chop etishga tayyorlash jarayoni juda ham oddiy. CMS kontenti boshqarish tizimining shubhasiz ijobiy tomoni shundaki, saytni boshqarish va ta'minlash narxi pasayadi. Bu dasturchi oylik maoshiga hujjatlarni izlashga ikkilanish va xatoliklarni oldini olishga ketgan yo'qotishlarning pasayishi, sheriklar va mijozlar bilan bog'lanish tezligining ortishi ... hisobiga yuz beradi. Sizga loyihani ta'minlash va rivojlantirish uchun mutaxassis yo'llashingizda to'g'ri kelmaydi.

CMS yordamida siz saytga joylashtirilgan ma'lumotlarning hajmi sayt narxiga ta'sir qilmasligiga guvoh bo'lasiz. CMS kontentni boshqarish tizimi sizga saytda ixtiyoriy hajmdagi ma'lumotlarni joylashtirishga imkon beradi.

Odatda CMS ga asoslangan sayt sahifalari butunligicha saqlanmaydi, balki ularga murojaat qilishda juda tez shakllanadi, bu sahifalarni yuklashdagi tezlikni oshirishga imkon beradi, chunki sahifa shabloni (dizaynerlik rasmiylashtirish) faqat bir marta yuklanadi va keyinchalik har bir yangi sahifa so'rovida foydalanuvchi kompyuteridan ochilaveradi.

Saytni boshqarish tizimida odatda keshlashtirish mexanizmi amalga oshiriladi, bu qurilmalarga tushadigan yuklamalarni kamaytirishga imkon beradi va ishlashning va saytning kiritish qobiliyatining tezligi oshishiga imkon beradi. Bu ishlar ma'lumotlar bazasi va static materiallarga so'rov natijalarini saqlash evaziga sodir bo'ladi.

Odatda CMS tizimini saytning kompaniya ishlab chiqaruvchisi o'rnatishini taklif qilishadi. Bu ancha to'g'ri variant chunki tizim avval boshidanoq sizning saytingizga joylashib, moslashib ketadi. Shuningdek, CMS tizimlari qo'shimcha funksiyalarni taklif etadi va oxir oqibat saytda forum, mehmon kitobi, savollar va javoblar va hokazolarni joylashtirishga imkon beradi.

CMS ning tekinlari ham mavjud, ular sayt tarkibini boshqarish uchun yetarlicha katta imkoniyatlarni namoyish qiladi. Tekin CMS lar ko'p foydalanuvchilarga ega, ular tekin kontentni boshqarish tizimi yordamida saytni boshqarish muammolarini hal qilishga yordam beradi. Tekin CMS larga katta miqdordagi kengaytma va qo'shimchalar mavjud, ular saytni boshqarish jarayonini ancha qulay va funksional qilishga imkon beradi. Ammo tekin CMS larning salbiy tomoni rasmiy texnik qo'llab quvvatlashning yo'qligi va sayt tarkibini boshqarish tizimida kritik xatolarni to'g'rilash, tezligining paytligidadir.

Ular konstruktor kabi bloklardan maqsadga yo'naltirilgan saytlarni yaratishda yordam beradi.

CMS platformalar keng funksional xususiyatlarga ega.

CMSni shartli ravishda quyidagi qismlarga ajratish mumkin:

Sahifalarni tez va oson yaratishda yordam beradigan vizual moharrir;

Sayt tarkibi, foydalanuvchilar va boshqa muhim obyektlar haqida ma'lumotlar joylashgan ma'lumotlar bazasi;

Turli mavzulardagi dizayn va tuzilmalarga ega shablonlar;

Saytga qo'shimcha funksiyalarni qo'shish imkonini beruvchi modul va plaginlar.

WordPress platformasini o'rnatish va undan foydalanishni uch xil usul bilan amalga oshirish mumkin:

WordPress

WordPress web-saytlar yaratish uchun eng mashhur CMS platformalardan biridir.

Kompyuterda joylashgan lokal veb-serverga platforma o'rnatish;

WordPress.com orqali ro'yxatdan o'tish va sayt yaratish;

Agar ro'yxatdan o'tkazilgan xosting va domen mavjud bo'lsa, platforma dasturiy ta'minot oxirgi versiyasini rasmiy sayt manzildan yuklab oladi. Yuklab olingan platforma masofadan boshqariluvchi server (xosting)ga ko'chiriladi va o'rnatiladi.

### **Tayanch tushunchalar**

Xosting – kompyuter xizmatlarining sayt uchun joy ajratib beradigan turi. Chunki har qanday sayt biror serverda ochiladi va muayyan hajmdagi joyni egallaydi.

Domen nomi – lokal yoki global tarmoq (internet) serverlaridan birida joylashgan saytning manzili yoki nomi. Domen orqali sayt joylashgan xosting va baza bilan bog'lanish mumkin.

Lokal veb-server – mijozdan kelayotgan so'rovlarni qabul qilib olib, ularga mos javoblarni jo'natadigan dastur.

WordPress.com taklif etgan bepul xosting yordamida sayt yaratish tartibi:

[www.wordpress.com](http://www.wordpress.com) saytiga kiriladi;

ro'yxatdan o'tish uchun « Приступайте » bosiladi;Elektron pochta, foydalanuvchi ismi, parol maydonlarini to'ldirib,« Создайте учётную запись » tugmachasi bosiladi.

Word Press.com taklif etgan bepul xosting yordamida sayt yaratish tartibi:

My Site bo'limiga o'tib, Create site tugmachasi bosiladi.Ochilgan muloqotli oynada domen uchun nom yoziladi.Pullik va bepul taklif etilgan domen nomlaridan biri tanlanadi. Select tugmachasi bosiladi.My Home bo'limida Keyingi qadamda pullik va bepul variantlar taklif etiladi, bepul variantni tanlash uchun Start with a free site tanlanadi. Your site has been created! Xabari paydo bo'ladi. Saytni sozlash uchun Get started tugmachasi tanlanadi.

Lokal veb-serverga maqsadga yo'naltirilgan sayt uchun platforma o'rnatish bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

Kompyuterga lokal veb-server to'plami o'rnatiladi;

Maqsadga yo'naltirilgan sayt uchun ma'lumotlar bazasi yaratiladi;

Sayt domenining nomi lokal veb-server domenlari ro‘yxatiga

Qo‘shiladi;

Sayt uchun platforma o‘rnatiladi.

OpenServer rasmiy sayti <https://ospanel.io/>

Orqali kompyuter operatsion tizimiga mos o‘rnatgich kompyuterga yuklab olinadi;

OpenServer lokal veb-server to‘plamini o‘rnatish tartibi:

OpenServer o‘rnatgichi ishga tushirilib, « Папка назначения » bo‘limida « Обзор »... orqali kerakli lokal disk ko‘rsatiladi va « Извлечь » tugmachasi bosiladi;

Lokal diskga kiriladi va Open Server papkasi ochiladi;OpenServer.exe fayli ishga

Tushirilib, til tanlanadi;Open Serverni ishga tushirish uchun ish stolining o‘ng pastki burchagida bayroqchani bosib, kontekst menyudan « Запустить » buyrug‘i tanlanadi.

Maqsadga yo‘naltirilgan sayt platformasi uchun ma’lumotlar bazasini yaratish tartibi:

OpenServer ishga tushganligi ( Запустить buyrug‘i amalga oshganligi) tekshiriladi;

OpenServer menyusi (bayroqcha)ni bosib, Дополнительно bo‘limidan PhpMyAdmin tanlanadi;

Ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimiga login (root) va parol (root) terib kiritiladi;

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÒYXATI:**

1. Горнаков С. Г. Осваиваем популярные системы управления сайтом. М: ДМК пресс,2009. 336 с.

2. Деревнина А. Ю., Кошелев М. Б. Принципы создания электронных учебников // Открытое образование. 2001. №2.

3. Телегин А. А. Целесообразность совершенствования методической системы обучения учителей информатики разработке образовательных электронных ресурсов.// Вестник Московского городского педагогического университета. Серия:информатика и информатизация образования. М.: МГПУ. 2006, №1 (6). С. 117–123.

4. <http://joomla.ru/documentation/start-joomla.html>